MAKTAB DIREKTORLARINING MEDIA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH - SHAXS TARBIYASIGA YO‘NALTIRILGAN RAQAMLI KONTENTLARDAN SAMARALI FOYDALANISH OMILI SIFATIDA

Xidirova Maftuna Ilhom qizi
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi
+998996119228 mxidirova581@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23509941

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy raqamli muhitda maktab direktorlarining media kompetentligini rivojlantirishning pedagogik va boshqaruv ahamiyati yoritiladi. Shaxs tarbiyasiga yo‘naltirilgan raqamli kontentlarni tanlash, tahlil qilish, baholash va maktab amaliyotiga joriy etishda direktorning media kompetentligining o‘rni asoslanadi. Shuningdek, xalqaro yondashuvlar asosida maktab rahbarlarining media kompetentligini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va amaliy mexanizmlari taklif etiladi.*
Kalit so‘zlar: *media savodxonlik, media kompetentlik, maktab direktori, raqamli kontent, shaxs tarbiyasi, raqamli ta’lim muhiti, axborot xavfsizligi, maktab boshqaruvi, raqamli kompetensiya.*
Аннотация. *В статье подчеркивается педагогическая и управленческая важность развития медиакомпетентности директоров школ в современной цифровой среде. Обосновывается роль медиакомпетентности директора в отборе, анализе, оценке и внедрении цифрового контента, направленного на личностное развитие в школьной практике. Также предлагаются основные направления и практические механизмы развития медиакомпетентности руководителей школ на основе международных подходов.*
Ключевые слова: *медиаграмотность, медиакомпетентность, директор школы, цифровой контент, личностное развитие, цифровая образовательная среда, информационная безопасность, управление школой, цифровая компетентность.*
Abstract. *The article highlights the pedagogical and managerial importance of developing media competence of school principals in a modern digital environment. The role of the principal's media competence in the selection, analysis, evaluation and implementation of digital content aimed at personal development in school practice is substantiated. Also, the main directions and practical mechanisms for developing media competence of school leaders based on international approaches are proposed.*
Keywords: *media literacy, media competence, school principal, digital content, personal development, digital educational environment, information security, school management, digital competence.*

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim-tarbiya jarayonining mazmuni, shakllari va boshqaruv mexanizmlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, bolalar va o‘smirlarning axborot hamda media makonida faol ishtirok etishi shaxs tarbiyasida raqamli kontentning o‘rnini tobora kuchaytirmoqda. Shu sababli maktabning ta’lim-tarbiyaviy muhitida foydalaniladigan raqamli kontentlarning mazmuni, ishonchliligi, tarbiyaviy

yo‘nalganligi va xavfsizligini ta’minlash zamonaviy maktab boshqaruvining muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda.

O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishning huquqiy asoslari axborotlashtirish, raqamli transformatsiya va bolalar uchun xavfsiz hamda mazmunli raqamli muhitni shakllantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarda o‘z aksini topgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrdagi 560-II-son “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanishning huquqiy asoslarini belgilaydi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi PQ-162-son qarori bilan raqamli xizmatlarni rivojlantirish va soha hamda hududlarni raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Bolalar uchun milliy va tarbiyaviy mazmunga ega raqamli kontentlarni rivojlantirish masalalari esa 2025-yil 15-maydagi PQ-183-son qarorda alohida e’tirof etilgan.

Mazkur huquqiy asoslar zamonaviy maktab boshqaruvida raqamli kontentdan foydalanishni faqat texnologik jarayon emas, balki ta’lim, tarbiya, axborot xavfsizligi va shaxs rivoji bilan bog‘liq kompleks jarayon sifatida qarash zarurligini ko‘rsatadi. Bunda maktab direktori raqamli kontentlarni tanlash va baholash, pedagoglar hamda o‘quvchilarning media madaniyatini rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta’minlash va maktabning xavfsiz raqamli muhitini shakllantirishda muhim boshqaruv subyekti sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu nuqtayi nazardan, maktab direktorlarining media kompetentligini rivojlantirish shaxs tarbiyasiga yo‘naltirilgan raqamli kontentlardan samarali, maqsadli va xavfsiz foydalanishni ta’minlovchi muhim pedagogik-boshqaruv omili hisoblanadi.Raqamli transformatsiya sharoitida maktab rahbarining kasbiy faoliyati an’anaviy ma’muriy-boshqaruv vazifalari bilan cheklanib qolmay, axborot va media makonini boshqarish, raqamli resurslarning pedagogik qiymatini baholash, ta’lim-tarbiya jarayonida raqamli texnologiyalardan maqsadli foydalanishni tashkil etish hamda o‘quvchilarning xavfsiz raqamli muhitini ta’minlash kabi yangi vazifalar bilan boyib bormoqda. Shu sababli maktab direktorining media kompetentligi zamonaviy ta’lim boshqaruvining muhim kasbiy kompetensiyalaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Media kompetentlik tushunchasi media savodxonlik tushunchasiga yaqin bo‘lsa-da, ular aynan bir xil mazmunni anglatmaydi. Media savodxonlik, avvalo, shaxsning axborot va media xabarlarini izlash, tushunish, tahlil qilish, baholash va ulardan mas’uliyatli foydalanish qobiliyatini ifodalasa, media kompetentlik ushbu bilim, ko‘nikma, munosabat va qadriyatlarni real kasbiy faoliyatda qo‘llash imkoniyatini anglatadi. Demak, maktab direktori uchun media kompetentlik nafaqat media mahsulotini iste’mol qilish, balki uni tanlash, ekspertizadan o‘tkazish, yaratish, boshqarish, tarbiyaviy maqsadga yo‘naltirish va uning ta’sirini baholash qobiliyatlarini ham qamrab oladi.

UNESCOning Media and Information Literacy yondashuvida media va axborot savodxonligi turli platformalar va axborot manbalaridan kelayotgan kontent bilan tanqidiy va mas’uliyatli ishlashga imkon beruvchi kompetensiyalar majmuasi sifatida qaraladi. Ushbu yondashuvda axborotni izlash, tahlil qilish, baholash, yaratish va tarqatish bilan bir qatorda axborotning ijtimoiy, madaniy va fuqarolik hayotidagi ta’sirini anglashga ham e’tibor qaratiladi.

Mazkur yondashuv maktab direktori faoliyatiga tatbiq etilganda media kompetentlikning mazmuni yanada kengayadi. Chunki direktor maktabdagi axborot oqimlarining oddiy iste’molchisi emas, balki pedagoglar, o‘quvchilar, ota-onalar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun raqamli axborot muhitini tashkil etuvchi boshqaruv subyekti hisoblanadi. Shu jihatdan direktorning media kompetentligi maktabda foydalaniladigan raqamli kontentning sifati, ishonchliligi, tarbiyaviy yo‘nalganligi va xavfsizligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Yevropa Ittifoqining DigComp raqamli kompetensiyalar modeli ham mazkur masalani tizimli tushuntirish imkonini beradi. DigComp 2.2 raqamli kompetentlikni besh asosiy yo‘nalishda ko‘rib chiqadi: axborot va ma’lumotlar savodxonligi; kommunikatsiya va hamkorlik; raqamli kontent yaratish; xavfsizlik; muammolarni hal qilish. Mazkur yo‘nalishlar maktab direktori faoliyatiga moslashtirilganda media kompetentlikning mazmunini aniqlash uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, DigCompEdu doirasida ta’lim jarayonida axborot va media savodxonligi, raqamli kommunikatsiya, raqamli kontent yaratish, mas’uliyatli va xavfsiz foydalanish hamda raqamli muammolarni hal qilish alohida kompetensiya yo‘nalishlari sifatida belgilanadi. Bu yondashuv maktab rahbarining media kompetentligini faqat texnik ko‘nikmalar bilan cheklamasdan, pedagogik va tarbiyaviy maqsadlar bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi.

Shu asosda maktab direktorining media kompetentligini axborot, media, raqamli texnologiyalar, kommunikatsiya, pedagogika va boshqaruv kompetensiyalarining integratsiyasiga asoslangan kasbiy sifat sifatida ta’riflash mumkin. Uning asosiy mazmuni direktorning raqamli axborotni izlash, saralash, ishonchliligini tekshirish, mazmunini tanqidiy tahlil qilish, tarbiyaviy qiymatini baholash, xavfsiz va etik tarzda foydalanish hamda ushbu jarayonlarni maktab miqyosida boshqarish qobiliyatlarida namoyon bo‘ladi.

Raqamli kontentning ta’lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati uning mavjudligi yoki texnologik jihatdan zamonaviyligi bilan emas, balki o‘quvchi shaxsining rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi bilan belgilanadi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, videoplatformalar, elektron ta’lim resurslari, mobil ilovalar, podkastlar, infografikalar, virtual muhitlar va sun’iy intellekt asosidagi vositalar bolalar va yoshlarning kundalik axborot muhitining muhim qismiga aylanmoqda. Bunday

sharoitda raqamli kontentni pedagogik va tarbiyaviy nuqtayi nazardan baholash maktab boshqaruvining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bu jarayonda maktab direktorining vazifasi barcha raqamli kontentlarni bevosita o‘zi yaratish yoki nazorat qilishdan iborat emas. Uning asosiy vazifasi maktabda raqamli kontent bilan ishlashning aniq mezonlari, ichki tartiblari va mas’uliyat mexanizmlarini shakllantirishdan iborat. Direktor pedagoglar uchun raqamli resurslarni tanlash bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishni tashkil etishi, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lmagan yoki xavfli kontentlardan foydalanishning oldini olishi, pedagoglarning media savodxonligini rivojlantirishi va ota-onalar bilan raqamli xavfsizlik masalalarida hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi lozim.

Maktab direktorlarining media kompetentligini rivojlantirish tizimli va uzluksiz jarayon sifatida tashkil etilishi lozim. Bunda, avvalo, direktorning axborotni izlash va baholash, media xabarlarini tahlil qilish, raqamli kommunikatsiya, kiberxavfsizlik, raqamli kontentdan foydalanish hamda uning tarbiyaviy mazmunini baholash bo‘yicha mavjud kompetensiya darajasi diagnostika qilinadi. Aniqlangan ehtiyojlar asosida direktorning individual rivojlanish yo‘nalishlari belgilanib, axborot manbalarini tanqidiy baholash, feyk va dezinformatsiyani aniqlash, CRAAP va SIFT kabi axborotni tekshirish yondashuvlaridan foydalanish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, ijtimoiy tarmoqlarda maktab imijini boshqarish hamda sun’iy intellekt vositalaridan mas’uliyatli foydalanish bo‘yicha amaliy treninglar tashkil etiladi. Keyingi jarayonda direktor va pedagoglar tomonidan maktabda foydalanilayotgan raqamli kontentlar manbasi, mazmuni, tarbiyaviy qiymati, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mosligi, xavfsizligi, etik jihatlari va pedagogik maqsadga muvofiqligi nuqtayi nazaridan ekspertizadan o‘tkaziladi. Olingan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotga tatbiq etish maqsadida “Xavfsiz raqamli maktab”, “Media savodxon o‘quvchi”, “Raqamli etik maktab”, “Ota-onalar uchun media savodxonlik” kabi maktabning muayyan tarbiyaviy yoki boshqaruv ehtiyojlariga yo‘naltirilgan raqamli loyihalarni amalga oshirish mumkin. Mazkur faoliyatning samaradorligi pedagoglar, o‘quvchilar va ota-onalarning fikrlari, raqamli kontentlardan foydalanish sifati, maktabning raqamli kommunikatsiyasi hamda tarbiyaviy tadbirlarning natijadorligini monitoring qilish orqali baholanadi. Yakuniy refleksiya asosida mavjud muammolar va rivojlanish ehtiyojlari aniqlanib, keyingi kasbiy rivojlanish yo‘nalishlari belgilanadi. Shu tariqa maktab direktorining media kompetentligini rivojlantirish bir martalik trening yoki alohida tadbir sifatida emas, balki diagnostika, individual rivojlanish, amaliy o‘qitish, raqamli kontent ekspertizasi, loyiha faoliyati, monitoring va refleksiyani o‘z ichiga olgan uzluksiz kasbiy rivojlanish mexanizmi sifatida tashkil etiladi.

Raqamli texnologiyalarning ta’lim va ijtimoiy hayotga chuqur kirib borishi sharoitida shaxs tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatuvchi axborot va media kontentlarining hajmi hamda xilma-xilligi tobora ortib bormoqda. Maktab direktorlarining media kompetentligini rivojlantirish shaxs tarbiyasiga yo‘naltirilgan raqamli kontentlardan samarali foydalanishning muhim omili hisoblanadi. Umuman olganda, zamonaviy maktab direktorini faqat ma’muriy boshqaruvchi sifatida emas, balki maktabning xavfsiz, mas’uliyatli va tarbiyaviy yo‘nalishga ega raqamli muhitini shakllantiruvchi media-lider sifatida tayyorlash zarur. Buning uchun rahbarlarning malakasini oshirish dasturlariga media savodxonlik, raqamli kontent ekspertizasi, axborot xavfsizligi, raqamli etika, sun’iy intellektdan mas’uliyatli foydalanish va raqamli kommunikatsiya bo‘yicha amaliy modullarni tizimli ravishda kiritish tavsiya etiladi. Natijada raqamli texnologiyalardan foydalanishning asosiy maqsadi texnologiyaning o‘zidan foydalanish emas, balki undan bilimli, tanqidiy ikrlaydigan, axborot xavfsizligiga rioya qiladigan, raqamli etikani anglaydigan, ijtimoiy mas’uliyatli va ma’naviy yetuk shaxsni tarbiyalash vositasi sifatida foydalanishga yo‘naltiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Axborotlashtirish to‘g‘risida. 2003-yil 11-dekabr, 560-II-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2023-yil 24-may, PQ-162-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Bolalar uchun mo‘ljallangan milliy kontentlar yaratish va ularni ommalashtirishni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2025-yil 15-may, PQ-183-son.
4. Toshboyev B.E., Normatov S.A. **Media savodxonlik va axborot madaniyati**. - Jizzax: Ilm Nuri Print, 2024. - 172 b.
5. Xidirova M. Malaka oshirish jarayonida maktab direktorlarining mediakompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmi –Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, T.: 2026.
6. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. - Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.
7. Wilson C., Grizzle A., Tuazon R., Akyempong K., Cheung C.-K. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. - Paris: UNESCO, 2011. - 192 p.